

**TURIZM - MAMLAKAT IQTISODIYOTINING DAROMAD MANBAI**

**Sarvar Abdurahimov Nasrilloevich –**

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Barchamizga ma'lumki, turizm tarmog'i jahon savdosining eng yirik tarmog'iga aylanib bormoqda va hozirgi kunda yer yuzidagi jami tovarlar va xizmatlar eksportida daromad keltirish bo'yicha uchta yirik tarmoqlar ichida neftni qazib olish va avtomobilsozlik sanoatidan keyin 3-o'rinda turadi. Turizm sohasi jahonda bo'ladigan jami eksportning 10 foizini beradi, xizmatlar savdosining esa 35 foizi turizmga to'g'ri keladi. Yangi O'zbekiston uchun ham turizm iqtisodiyotning muhim daromad manbai hisoblanadi. Ushbu sektor xalqaro valyutani jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'plab ilmiy adabiyotlarda ilmiy asoslab berilgan. Ushbu maqolada turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganish maqsad qilingan bo'lib, maqola oliy ta'lim muassasalari talabalari, tadqiqotchilari, sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar hamda keng auditoriya uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy o'sish, turizm, xalq xo'jaligi, milliy turizm, zamonaviy turizm, mehmonxona.

**Kirish.** Turizm sektori mamlakat iqtisodiyotining muhim daromad manbai bo'lib, uning iqtisodiy ta'siri katta. Mamlakatlar turizmni rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy daromadlarini oshiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratadi, infratuzilmani rivojlantiradi va davlat daromadlarini ko'paytiradi. Shu bilan birga, barqaror turizmni ta'minlash va uning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur. Yangi O'zbekistonda ham turizmning rivojlanishi jamiyatning yangilanish davriga to'g'ri kelib, u asta-sekinlik bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holga, turistik xizmatlar hajmining ortib borishi bilan ajralib turadi.

Qolaversa, dunyoda kuzatilayotgan o'zgarishlar hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasining o'zi ham mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi turizm sohasi bilan ham bog'liq ekanligi orqali ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Shuning uchun ham Yangi O'zbekistonda turizmni hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritishini ta'minlash, bu sohaning iqtisodiyot uchun, umuman jamiyat rivojlanishi uchun qo'shayotgan hissasini yiddan-yilga ortib borishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur jihatlarni hisobga olgan holda respublikamiz iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko'tarish, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini keskin ko'paytirish borasida respublika darajasida amaliy ishlar olib borilmoqda. Maxsus dastur va strategiyalar orqali turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etayapti. Ana shularni inobatga olgan holda bir qator maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yilning ortda qolgan davri mobaynida mamlakat turizmi salohiyatini xorijda keng targ'ib etish va ichki turizm oqimini oshirish maqsadida xorijiy va mahalliy telekompaniyalar va internet platformalari bilan hamkorlikda qator loyihalarga qo'l urildi.

Jumladan, dunyo bo'ylab umumiy auditoriyasi 2,5 mlrd.dan ortiq bo'lgan Britaniyaning "BBC", Yevropaning "Euronews", AQShning "Amadeus" raqamli onlayn platformasi va

Xitoyning “**Trip.com**” yirik onlayn-sayohat platformasi bilan qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklarining “**Holiday factory**” sayyohlik kompaniyasi va “**Visa Fasilitation Servises Global**” ma’uriyati bilan, shuningdek, “**Numa GmbH**” kompaniyasi bilan O‘zbekistonning turizm salohiyati va jozibadorligini markaziy Yevropaning uch davlati Germaniya, Avstriya va Shveysariyaga tegishli sayyohlik yo‘nalishi sifatida targ‘ib qilish, “**Lonely Planet**” xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan “**Best in Travel 2024**” loyihasi orqali O‘zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish va turizm salohiyatini keng targ‘ib qilish, “**EVERCOM**” xizmatidan foydalangan xolda Ispaniyadagi turizm sohasidagi professional xaridorlarni jalb qilish, Rossiya turoperatorlari uyushmasining raqamli onlayn platformasi orqali har oy maqolalar va bannerlarni ishlab chiqish va O‘zbekistonning turizm salohiyati va jozibadorligini targ‘ib qilishga doir loyihalar amalga oshirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Respublikaning turistik salohiyatini targ‘ib qilish va turistlar oqimini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 28 ta xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalariga mablag‘ ajratildi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Turizm sohasidagi adabiyotlarda turizmga uch xildagi umumiy ta’rif berilmoqda.

**Birinchisi**, tor ma’nodagi ta’rif bo‘lib, unga binoan bu tushuncha turistik korxonalar faoliyati bilan chegaralanadi.

**Ikkinchisi**, bir yoqlama iste’molchiga qaratilgan bo‘lib, bu ta’rifga asosan turizm faoliyati doimiy istiqomat qilish joyidan tashqarida va ishlab chiqarish tashvishlaridan holi holatda xizmat va tovarlarni iste’mol qilish jarayoni sifatida tushuniladi.

**Uchinchisi**ga ko‘ra esa, turizm tushunchasi jamiyatda insonlarning istiqomat qilish joyidan tashqarida bo‘sh vaqtdan foydalanishi va buning uchun zarur bo‘lgan xizmat va tovarlar turlarini qayta ishlash shartlari bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar majmuasini ifodalaydi. Bizningcha, so‘nggi ta’rif nafaqat keng va atroflicha, balki, turizmning jamiyatdagi o‘rniga yangi sifat va baho beradi.

Turizm sohasini yanada rivojlantirishning turli nazariy va amaliy jihatlari xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar, amaliyotchi ekspertlar ilmiy ishlari hamda hisobot ma’ruzalarida muhim tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilgan.

Jumladan, xorijlik olim A.Menyaylov “**Turizm iqtisodiy integratsiya va globalizatsiya omili sifatida**” maqolasida turizmning kiruvchi mamlakat uchun ahamiyati, foyda va zararlarini ochib bergan.

A.Barlibayev, V.Axmetov “**Turizmning qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilishdagi o‘rni**” maqolasida turistik faoliyatning turli iqtisodiy sektorlarning jadal rivojlanishi, xususan, qishloq xo‘jaligining diversifikatsiyasidagi ahamiyatiga urg‘u berilgan.

O.Kazanseva “**Turizm milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining omili sifatida**” nomli maqolasida mamlakatlarning turizmni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishlarini izohlash bilan bir qatorda, sektor rivojlanishi mamlakatning iqtisodiyoti o‘shiga olib kelishini isbotlagan.

G.Arslanovanning fikriga ko‘ra “**Turizm mahalliy infrastrukturani rivojlantirish, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, xizmatlar sektorining o‘shiga turtki bo‘lishi mumkin**”.

Y.Ksyao turizmni sayohatchining notijorat va kasbga bog‘liq bo‘lmagan vaqtinchalik va ixtiyoriy, doimiy yashash joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq munosabatlar va xizmatlar to‘plami sifatida ta’riflaydi.

G.M.Shadiyeva, N.B.Shanazarova va S.M.Arslanbekovlar esa, turizm tushunchasini alohida bir mamlakat milliy iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyotning butun jahon xo'jaligi bilan aloqalari doirasida alohida elementlar o'rtasidagi turli bog'liqliklarga ega bo'lgan yirik iqtisodiy tizim sifatida shakllantiradi.

So'nggi yillarda chop etilgan mahalliy olimlarning ilmiy ishlari ham diqqatga molik. Z.I.Usmonova tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarda turistik rekreatsion xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

J.N.Abiyev milliy iqtisodiyotda turizm tarmog'ini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etgan.

**Methods.** Mazkur maqola uchun ma'lumotlar Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO), Jahon Banki va turli mamlakatlarning statistika idoralaridan olingan ma'lumotlar hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga asoslanadi. Tahlil uchun qiyosiy tahlil va statistik ma'lumotlar tahlili metodlari qo'llanildi. Turizmning iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar o'rganildi:

turistik daromadlar

yangi ish o'rinlari soni

infratuzilma investitsiyalari

soliq tushumlari

Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va jozibador muhitni shakllantirish masalalari iqtisodchi olimlar o'rtasida qisman bayon etilgan. Bizningcha, hozirgi vaqtda xalqaro turistik xizmatlarning rivojlanish dinamikasi tahlilini olib borib, sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosati samaradorligiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash kabi usullardan foydalanildi. Xususan, o'ndan ortiq milliy va xorijiy adabiyotlarda mazkur mavzuga doir tadqiqotlar o'rganib chiqildi va tahlil etildi. Mavzuga doir bugungi kundagi tendensiya baholandi.

**Results.** Natijalar haqida gap ketganida quyidagi to'rtta jihatga alohida e'tibor qaratish kerak. Sababi mazkur jihatlarining shakllanishi mamlakat iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishiga asos bo'ladi oladi. **Ular quyidagilar:**

**1. Xorijiy valyuta tushumi.** Turizm ko'plab mamlakatlar uchun xorijiy valyutani jalb qilishning asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, Tailand 2019-yilda turizm orqali 60 milliard AQSh dollari miqdorida daromad olgan, bu esa mamlakatning umumiy eksport daromadining katta qismini tashkil etadi.

**2. Ish o'rinlari yaratish.** Turizm sektori bevosita va bilvosita ko'plab ish o'rinlarini yaratadi. Masalan, Ispaniyada 2019-yilda turizm sektori 2.8 million ish o'rni yaratgan, bu mamlakatdagi umumiy ish o'rinlarining 14 foizini tashkil etadi.

**3. Infratuzilmani rivojlantirish.** Turistlarni jalb qilish uchun ko'plab mamlakatlar infratuzilmani rivojlantiradi. Mamlakatlar aeroportlar, yo'llar, mehmonxonalar va boshqa turistik

ob'ektlarga katta miqdorda investitsiyalar kiritadi. Misol uchun, Dubay so'nggi yillarda turizm infratuzilmasiga milliardlab dollar sarmoya kiritgan.

**4. Davlat daromadlari.** Turizm orqali davlatga turli soliqlar va yig'imlar ko'rinishida daromadlar kelib tushadi. Bu mablag'lar davlat budjeti uchun qo'shimcha manba bo'ladi. Masalan, Fransiyada turizm soliqlari yillik 20 milliard yevroga teng.

**5. Mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.** Turizm mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Turistlar uchun mahsulotlar va xizmatlar taqdim etadigan kichik bizneslar rivojlanadi.

**6. Madaniy almashinuv.** Turizm orqali madaniy almashinuv yuzaga keladi. Turistlar mahalliy madaniyat bilan tanishadilar va o'zlari ham o'z madaniyatlarini olib keladilar. Bu jarayon jamiyatlar o'rtasidagi tushunishni oshiradi.

**7. Qishloq xo'jaligi va sanoat rivoji.** Turistlarga oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar ta'minlash uchun mahalliy qishloq xo'jaligi va sanoat rivojlanadi. Bu esa qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi.

**8. Davlat daromadlari.** Turizm orqali davlatga turli soliqlar va yig'imlar ko'rinishida daromadlar kelib tushadi. Bu mablag'lar davlat budjeti uchun qo'shimcha manba bo'ladi.

Biroq, turizmning salbiy ta'sirlari ham mavjud bo'lib, ular ekologik zarar, mahalliy madaniyatning yo'qolishi va ijtimoiy muammolarni o'z ichiga olishi mumkin. Shu sababli, barqaror turizmni rivojlantirish va turistik oqimlarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega.

**Discussion.** Sayohat va turizm (*travel and tourism*) – bir-biri bilan bog'liq tushuncha bo'lib, ular inson hayot faoliyatining ma'lum bir tarzini ifodalaydi. Bu dam olish, ko'ngil ochish, sport, atrof-muhitni anglash, savdo, fan, da'volanish va boshqa ko'plab jihatlarni qamrab oladi. Biroq, bunda har safar sayohatni boshqa faoliyat turlaridan ajratib turuvchi o'ziga xos harakat – insonning vaqtinchalik boshqa joyga, mamlakatga, qit'aga borishi, uning doimiy yashash joyidan uzoqlashishi nazarda tutiladi.

Turizm sohasi oxirgi 20 yil ichida ayniqsa jadal sur'atlarda rivojlandi. Bu vaqt oralig'ida xalqaro turistlar soni 3,8 marta, bu sohadan keladigan foyda 25 martaga o'sdi. Hozirgi kunda turizm sohasiga dunyo yalpi mahsulotining 6 foizi, xalqaro sarmoyalarning 7 foizi, ish o'rinlarning har o'n oltinchisi, dunyo iste'mol harajatlarining 12 foizi to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda turizm - jahon miqiyosidagi iqtisodiyotning juda kuchli tarmog'i bo'lib, bu sohaga juda ko'p sonli xodimlar, asosiy vositalar va yirik kapital mablag'lar jalb qilingan. Turizm yirik biznes, katta pul va global miqiyosdagi jiddiy siyosatdan iborat.

Zamonaviy turizmning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida, uning muhim tasnifiy belgilarini aniqlab olish zarur bo'ladi. Jumladan, geografik va turistik talab yo'nalishi bo'yicha, safar maqsadi, harakatlanish usuli, turistlarni joylashtiruv vositalari va ishtirokchilar soni bo'yicha, tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Hozirda turistlarning talablarini qondirish maqsadida turistik faoliyatlarning ko'pgina turlari mavjud. Turizmning har bir turi sayohatning aniq belgilangan maqsadiga bog'liq. UNWTO tashkilotiga binoan, sayohat maqsadlari asosan ikki turda bo'ladi, shaxsiy va biznesga aloqador. Barcha sayohat maqsadlari shu ikki asosiy asosida shakllanadi.

*1-jadval*

**Turizm sohasida turistni sayohatchidan ajratib turuvchi asosiy farqlari<sup>1</sup>**

Farq qiluvchi belgilar	Turizm (turist)	Sayohat (sayohatchi)
Mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri bo'yicha	Turizm jahon miqyosidagi kuchli iqtisodiyot tarmog'i bo'lib, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi mavjud. Bu yirik biznes, katta pul va global miqyosdagi jiddiy siyosatdir	Sayohatlarning iqtisodiyotga bevosita ta'siri yo'q
Qo'yilgan maqsadlar bo'yicha	Yo'llanmada ko'rsatilgan aniq qo'yilgan maqsadlar bilan chegaralangan	Aniq qo'yilgan maqsadlar bilan chegaralanmagan
Muddat maboynida	<b>Muddatlari:</b> 3-7 kunlik; 8-28 kunlik; kunlar bilan belgilangan	Muddati chegaralanmagan
Ma'lum makonda bo'lishi	Bo'ladigan joyi yo'llanma bilan chegaralangan	Makoni yoki bo'ladigan joyi chegaralanmagan
Bo'sh vaqtning mavjudligi	Asosan bo'sh vaqt maboynida amalga oshiriladi	Bo'sh vaqt bo'lishi shart emas. Sayohat qilish hayot tarzi hisoblanadi
Borgan joyida haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanishi bo'yicha	Qonun bo'yicha borgan joyida turist uchun haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanish mumkin emas	Borgan joyida sayohatchi uchun haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanish mumkin
Mablag' bilan ta'minlash	Turistning shaxsiy mablag'idan va ijtimoiy fondlardan	Homiy tashkilotlar, davlat va xususiy jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladi

<sup>1</sup> UNWTO(20050. Mas'uliyatli Turist va Sayohatchi. [Http://ethics.unwto.org/sites/all/files/doc.pdf/responsible\\_tourist\\_brochureen.pdf](http://ethics.unwto.org/sites/all/files/doc.pdf/responsible_tourist_brochureen.pdf)

	Tashkil qilish va xizmat ko'rsatish	Bu faoliyat turli xil turistik korxonalar va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi.	Tashkil qilish, sayohlarga xizmat ko'rsatish homiy tashkilotlar, davlat va xususiy jamg'armalar tomonidan amalga oshiriladi.
	Yashash foyiatiga ta'siri	Turist uchun sayohatga borib kelish dam olish va o'z bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.	Sayohatchi uchun sayohat kasbi yoki kun ko'rish manbai, turmush tarzi bo'lib xizmat qiladi.

**Conclusion.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri juda katta. U xorijiy valyutani jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va davlat daromadlarini oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Biroq, turizmning salbiy ta'sirlari ham mavjud bo'lib, ular ekologik zarar, mahalliy madaniyatning yo'qolishi va ijtimoiy muammolarni o'z ichiga olishi mumkin. Shu sababli, barqaror turizmni rivojlantirish va turistik oqimlarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Turizm ko'plab mamlakatlar uchun iqtisodiyotning muhim daromad manbai hisoblanadi. Bu sektor nafaqat xorijiy valyutani jalb qilish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va madaniy almashinuvni qo'llab-quvvatlash orqali ham mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 Farmoni.
2. Barnabé Walheer, Linjia Zhang. Profit Luenberger and Malmquist-Luenberger indexes for multi-activity decision-making units: The case of the star-rated hotel industry in China //International Journal of Tourism Management. Pages 1-604 (December 2018) rr.111.
3. Kujelya Yu.L. Turizm i gostepriimstvo. Uchebnik: - M.: Izdatelstvo Yurayt, 2018. - 439 s.
4. Adilova Z., Norchayev A., Aliyeva M. *Turizm menejmenti. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2011, - 180 b.*
5. Abdusalomova N. *Xalqaro turizm da marketing jarayoni. i.f.n. diss. -TDIU, 2001. – 142 b.*
6. Fayziyeva Sh.R. *O‘zbekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. i.f.n. diss. - O‘zMU, 2006. –135 b.*
7. Mamatqulov X. *Mehmonxona va turistik komplekslarda xizmatlarni tashkil etish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand. SamISI, 2011 y.*
8. Pardayev M., Xoliqulov A. *Mehmonxona xo‘jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari. Monogorafiya. T.: Iqtisodiyot, 2013 y.*

*Internet resurslari:*

<https://www.uza.uz>

<https://www.stat.uz>

<https://www.ziyonet.uz>

<https://www.edu.uz>

<https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/6667>